



SUD PSIXOLOGIK EKSPERTIZASINING ZAMONAVIY HUQUQIY TIZIMDAGI O‘RNI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI

Adliya vazirligi huzuridagi X.Sulaymonova nomidagi

Respublika sud ekspertiza markazi

davlat sud eksperti

Absoatov Hasan Eshmo‘min o‘g‘li

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada sud psixologik ekspertizasi institutining nazariy va amaliy muammolari kompleks tahlil qilinadi. Maqolada ekspertizaning predmeti, obyekti va huquqiy tartibga solinishi batafsil yoritilgan. Shuningdek, jinoyat va fuqarolik ishlarida shaxsning ruhiy holatini baholashning zamonaviy usullari, affekt holatining diagnostikasi, voyaga yetmaganlar psixologiyasi va guvohlar ko‘rsatmalarining ishonchliligini tekshirish masalalari ilmiy nuqtayi nazardan tadqiq etilgan.

Kalit so‘zlar: Sud psixologik ekspertizasi, huquqiy psixologiya, fiziologik affekt, psixodiagnostika, individual psixologik xususiyatlar, voyaga yetmaganlar, ma‘naviy zarar, ekspert xulosasi.

Abstract: This scientific article provides a comprehensive analysis of the theoretical and practical issues of the institution of forensic psychological examination. The article elaborates in detail on the subject matter, object, and legal regulation of forensic psychological expertise. In addition, modern methods for assessing an individual’s mental state in criminal and civil cases, the diagnosis of affective states, issues related to juvenile psychology, and the evaluation of the reliability of witness testimony are examined from a scientific perspective. Particular emphasis is placed on the process of forming an expert conclusion and its procedural significance.

Keywords: Forensic psychological examination, legal psychology, physiological affect, psychodiagnosics, individual psychological characteristics, juveniles, non-pecuniary damage, expert conclusion.

Zamonaviy huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayonida inson huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish muhim ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Sud-huquqiy faoliyatda esa shaxsning nafaqat huquqiy holati, balki uning psixologik xususiyatlari, ruhiy jarayonlari va emotsional holatini chuqur o‘rganish adolatli sud qarorini ta‘minlashda alohida ahamiyat kasb etadi. So‘nggi yillarda sud amaliyotida shaxs omiliga e‘tibor kuchayib, huquqiy baholash jarayonida psixologik



bilimlardan foydalanish ehtiyoji tobora ortib bormoqda. Aynan shu jarayonda sud psixologik ekspertizasi huquq va psixologiya fanlarining uzviy integratsiyasi sifatida shakllanib, sud-tergov faoliyatining muhim instituti darajasiga ko'tarilmoqda. Sud psixologik ekspertizasi shaxsning psixik faoliyatini ilmiy asosda tahlil qilish orqali jinoyat va fuqarolik ishlarida haqiqatni aniqlash, inson huquqlarini himoya qilish va sud qarorlarining asoslilikini oshirishga xizmat qiladi.

Inson huquq va erkinliklarini himoya qilish zamonaviy huquqshunoslikning ustuvor vazifasidir. Odil sudlovni amalga oshirishda shaxsning ichki dunyosi, uning xulq atvori motivlari va ruhiy holatini to'g'ri baholash adolatli qaror chiqarishning garovidir. Sud psixologik ekspertizasi psixologiya fanining yutuqlarini huquq amaliyotiga tatbiq etuvchi maxsus soha sifatida, tergov va sud jarayonida obektivlikni ta'minlashga xizmat qiladi. So'nggi yillarda jinoyatchilikning transformatsiyasi va ijtimoiy munosabatlarning murakkablashishi ushbu ekspertiza turiga bo'lgan ehtiyojni yanada oshirdi.

Sud psixologik ekspertizasi bu psixologiya sohasidagi maxsus bilimlar asosida shaxsning ruhiy faoliyati xususiyatlarini o'rganish orqali huquqiy ahamiyatga ega bo'lgan savollarga javob berishga qaratilgan tadqiqotdir. Ekspertiza predmeti deganda, ruhiy jihatdan sog'lom shaxslarning huquqiy vaziyatlardagi psixik faoliyati qonuniyatlari tushuniladi. Obyekt sifatida esa ayblanuvchilar, jabrlanuvchilar, guvohlar hamda fuqarolik ishi bo'yicha ishtirokchilarning ruhiy dunyosi va ularning xatti harakatlari namoyon bo'ladigan moddiy va hujjatli materiallar xizmat qiladi. Huquqiy amaliyotda ushbu soha ko'pincha sud psixiatriya ekspertizasi bilan kompleks shaklda qo'llaniladi. Biroq ularning vazifalari tubdan farq qiladi. Psixiatriya ekspertizasi shaxsning aql rasoligi masalasini, ya'ni ruhiy patologiyalarni aniqlasa, psixologik ekspertiza sog'lom inson ruhiyati doirasidagi o'zgarishlarni, masalan, kuchli emotsional bosim yoki individual xarakter xususiyatlarining qaror qabul qilishga ta'sirini o'rganadi. Jinoyat protsessida psixologik ekspertiza ko'plab murakkab vaziyatlarda yagona ilmiy yechim bo'lib xizmat qiladi. Ayniqsa fiziologik affekt va boshqa emotsional holatlar tahlili markaziy o'rinni egallaydi. Jinoyat huquqida kutilmaganda yuzaga keladigan kuchli hayajon ostida sodir etilgan qilmishlar jazo miqdoriga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ekspert jinoyat sodir etilgan vaqtdagi shaxsning ruhiy holatini tahlil qilib, uning ongi qanchalik darajada torayganini va o'z harakatlarini boshqarish qobiliyati qay darajada cheklanganini aniqlaydi. Yana bir muhim yo'nalish guvohlik ko'rsatmalari va idrok xususiyatlarini baholashdir. Inson xotirasi va idroki tashqi ta'sirlar, qo'rquv yoki yosh xususiyatlari tufayli voqealarni o'zgartirib yuborishi mumkin. Psixolog ekspert guvoh yoki jabrlanuvchining haqiqatan



ham voqeani to'g'ri idrok etish va uni xotirada saqlab, qayta tiklab bera olish qobiliyatini ilmiy metodlar yordamida tekshiradi.

Fuqarolik huquqiy munosabatlarida ushbu ekspertizaning roli yil sayin kengayib bormoqda. Oila nizolari va bolaning manfaatlarini himoya qilish jarayonida bolaning qaysi ota yoki onaga ko'proq bog'liqligini aniqlashda psixologik diagnostika hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ekspert bolaning ichki qo'rquvlarini va ota onasiga bo'lgan haqiqiy munosabatini maxsus testlar orqali aniqlab beradi. Shuningdek, turli bitimlarning haqiqiylikini tekshirishda, ya'ni shaxs biror hujjatni imzolayotgan paytda ruhiy bosim ostida bo'lgan yoki bo'lmaganini aniqlashda ham ushbu soha mutaxassislari jalb etiladi.

Sud psixologik ekspertizasining xolisligi va aniqligi qo'llaniladigan metodlarga bog'liq. Ekspert o'z xulosasini chiqarishda klinik psixologik usullar, ya'ni suhbat va kuzatish bilan bir qatorda eksperimental psixologik metodlardan ham foydalanadi. Standartlashtirilgan testlar va proyektiv metodikalar shaxsning ongsiz ravishda yashirgan qo'rquvlarini, agressiya darajasini va irodaviy sifatlarini ochib beradi. Har bir qo'llanilgan metod ilmiy asoslangan va xalqaro miqyosda tan olingan bo'lishi shart, aks holda ekspert xulosasi sudda isbotlovchi kuchga ega bo'lmaydi.

Hozirgi kunda sohani yanada takomillashtirish uchun bir qator vazifalarni amalga oshirish lozim. Birinchidan, xorijiy psixologik metodikalarni milliy mentalitet va til xususiyatlaridan kelib chiqib adaptatsiya qilish talab etiladi. Ikkinchidan, kiber jinoyatchilik va axborot texnologiyalari bilan bog'liq jinoyatlarda psixologik tahlilning yangi mexanizmlarini ishlab chiqish zarur. Shuningdek, ekspertlar malakasini oshirish va ularni zamonaviy texnik vositalar bilan ta'minlash sud tizimidagi samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi. Sud psixologik ekspertizasi odil sudlovning ajralmas va muhim tarkibiy qismidir. U inson omilini hisobga olgan holda, quruq dalillarga ilmiy manzara bag'ishlaydi va sudga shaxsning haqiqiy holati haqida ma'lumot beradi. Ushbu sohani rivojlantirish nafaqat jinoyatchilikka qarshi kurashishda, balki inson huquqlarini eng yuqori darajada himoya qilishda ham ulkan ahamiyatga ega. Kelajakda raqamli texnologiyalar va neyropsixologiya yutuqlarining integratsiyasi ekspertiza sifatini yangi bosqichga olib chiqadi.

O'tkazilgan ilmiy tahlillar shuni ko'rsatadiki, sud psixologik ekspertizasi zamonaviy huquqiy tizimda shaxs omilini chuqur va har tomonlama o'rganishga xizmat qiluvchi muhim huquqiy institutlardan biri hisoblanadi. Sud-huquqiy munosabatlarda insonning psixologik xususiyatlari, ruhiy holati, xatti-harakat motivlari va qaror qabul qilish mexanizmlarini ilmiy asosda baholash sud adolatini ta'minlash, inson huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish hamda sud qarorlarining asoslanganligini



oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Sud psixologik ekspertizasi huquq va psixologiya fanlarining uzviy integratsiyasi sifatida sud-tergov faoliyatida obyektivlik va xolislik tamoyillarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Mazkur ekspertiza yordamida shaxsning xulq-atvorini shakllantiruvchi ichki va tashqi omillar, emotsional-irodaviy holatlar, bilish jarayonlari hamda individual-psixologik xususiyatlari aniqlanadi. Bu esa sud organlariga ish bo'yicha haqiqatni to'liq va har tomonlama aniqlash imkonini beradi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, sud psixologik ekspertizasi ayniqsa jinoyat ishlarini ko'rib chiqishda alohida ahamiyatga ega bo'lib, affekt holatini aniqlash, ayblanuvchining o'z xatti-harakatlarini anglash va boshqarish qobiliyatini baholash, shuningdek, guvoh va jabrlanuvchilarning ko'rsatmalarini psixologik nuqtai nazardan tahlil qilishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Fuqarolik sud ishlarida esa ota-onalik huquqi, vasiylik va homiylik, bola manfaatlarini aniqlash bilan bog'liq masalalarni hal etishda sud psixologik ekspertizasining ahamiyati tobora ortib bormoqda. Shu bilan birga, sud psixologik ekspertizasi voyaga yetmaganlar ishtirokidagi ishlarni ko'rib chiqishda ularning yoshga oid psixologik rivojlanish darajasi, emotsional barqarorligi va ijtimoiy moslashuvini aniqlash orqali tarbiyaviy va profilaktik choralarning samarali qo'llanilishiga xizmat qiladi. Bu holat sud qarorlarining nafaqat huquqiy, balki ijtimoiy-pedagogik jihatdan ham asoslangan bo'lishini ta'minlaydi.

Sud psixologik ekspertizasini takomillashtirish istiqbollari, avvalo, uni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni takomillashtirish, sud psixologlari faoliyatini aniq belgilovchi huquqiy mexanizmlarni ishlab chiqish bilan bog'liqdir. Shuningdek, sud psixologlari uchun maxsus tayyorgarlik, sertifikatlash va malaka oshirish tizimini joriy etish ushbu sohaning professional darajasini oshirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, milliy mentalitet, madaniy va ijtimoiy xususiyatlarni inobatga olgan holda ilmiy-metodik ta'minotni boyitish, zamonaviy psixodiagnostik metodikalarni sud amaliyotiga tatbiq etish sud psixologik ekspertizasining ilmiy asoslanganligini yanada mustahkamlaydi. Sud organlari, tergovchilar va sud psixologlari o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni kuchaytirish esa ekspert xulosalarining sifatini oshirishga va ularning sud amaliyotida samarali qo'llanilishiga xizmat qiladi. Xulosa qilib aytganda, sud psixologik ekspertizasi zamonaviy huquqiy tizimning muhim tarkibiy qismi bo'lib, u sud adolatini ta'minlash, inson huquqlarini himoya qilish va sud qarorlarining ilmiy asoslanganligini oshirishda muhim rol o'ynaydi.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Kodekslari to‘plami. – Toshkent: “Adolat”, 2023.
2. Mahmudova H.T. Sud-psixologik ekspertizasi. Uslubiy qo‘llanma. – T., RSEM, 2021.
3. Mahmudova H.T. Sud-psixologik ekspertiza psixodiagnostikasi. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. – T., O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2020.
4. Васильев В.Л.Юридическая психология. Л. 2005 г..